



QORAQALPOQLARDA DEHQONCHILIKGA BOG'LIQ BO'LGAN BAYRAM VA MAROSIMLAR

Eshmuratova Muxabbat Oralbaevna

Qoraqolpaq davlat Universiteti stajyor-tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10023844>

ARTICLE INFO

Received: 14th Oktober 2023

Accepted: 19th Oktober 2023

Online: 20th Oktober 2023

KEY WORDS

Dehqonchilik, etnologiya, marosim, urf-odat, tarix, fasl bilan bog'liq marosimlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada dehqonchilikda mavsumga va ob-havo bilan bog'liq bo'lgan milliy marosimlarimiz haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dehqonchilik haqida, uning tarixiy jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Qoraqalpoq aholisining kelib chiqishi, etnografiyalik tarixi murakkab va uzoq davrni qamrab oladi. Qadimiy zamonlardan bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz, urf - odatlarimiz, bayramlarimiz va marosimlarimizning paydo bo'lishi va rivojlanishiga birqancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, milliy marosimlar va bayramlarning rivojida madaniy va manaviy madaniyatning, tabiiy muhit, xojalik aloqalarining ta'siri juda katta. Azaldan xalqimizning turmish- tarzi charvochilik va dehqonchilikga shambarshest bog'langan. Shuning uchun non bizlar uchun qadrlı mahsulotlarning biri. Sababi bug'doy, arpa ha'mda bunday mahsulotlarni ekish, egish uchun aholi tomonidan katta mehnat sarf qilingan. Daryoning ohirida yashovchi insonlar uchun ekin ekishda qiyinchiliklarga duch kelishgan. Tarixdan ma'lumki dehqonchilikda ob-havo bilan bog'liq bo'lgan bir qancha marosimlar bo'lgan va hozirga qadar amalda qo'llaniladigan joylar mavjud. Bu marosimlarni etnologiyada o'rganishimiz mumkin bo'ladi. Etnologiyada «marosim», «urf-odat», «an'ana», «bayram»lar fanning asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida keng qo'llaniladi. Chunki har bir xalqning shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayram va sayllar shakllanib, taraqqiy etib boradi. Ular kishilar turmush tarzining muhim bir bo'g'ini tarzida tarkib topadi. Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an'analarni, rasm-rusumlar va urf-odatlarni xalq marosimining fenomeni tarzida o'rganish dolzarb muammolardan biri sanalib kelingan. Ayniqsa, respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miqyosida e'tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an'anaviy marosimda tutgan o'rni, ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda". [1,185] Shuningdek, marosim-inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga



kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. [2,152] Boshqacha aytganda, marosim Xalq tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbiridir. Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir.

Yuqoridagi aholiimiz orasida uygunlashib ketgan qadiryatlarimizning biri sharq xalqlarining quyosh taqvimidagi birinchi kun bo'lgan Navro'z (Nav-yangi, Ro'z-kun) bayramidan boshlanadi. Insonlar kotarinki ruxda otkaziladigan ulug' ayyam, bahor bayrami navro'zni ajdodlarimiz qadrli kun deb bilib, uni katta quvonch bilan otkazishga harakat qilgan. Navro'z yer haqidagi daslabki ilmiy-geografik o'ylarni paydo bo'lgan davrdan e'tiboran tug'ildi. Dastlabki, bu bayramni o'troq dehqonlar, keyinchalik yarim o'troq va ko'chma turkiy qavmlarning ham urf -odatiga aylandi. Uning yaratilish tarixini olimlarimiz tosh asriga (e 10-15 mingta yillik) tegishli deb yozib o'tadi. Beruniy «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida qimmatli ma'lumotlar berib, unda kichik bayram farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganini ta'kidlagan. Demak, farvordin oyining oltinchi kuni «Katta Navro'z»ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog'laydi va bu haqda shunday yozadi: «...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqitda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan».[3,74] Bu fikrlar Navro'zning qadimdan tabiat va bahor bayrami bo'lganini yana bir karra isbotlaydi. Biroq, tarixda Navro'zning mazmunini turlicha talqin qilib, ba'zilar uni tarakqiy ettirishga, boshqalar esa uni ta'qiqlashga harakat qilishdi. Jumladan, grek-makedon va arab istilosi davrlarida Navro'z ta'qiqlanib, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Navro'z o'tmishdagi har bir sinfiy jamiyatda podsholar hukmdorligi, diniy ideologiya ta'sirida shaklan o'zgarib tursa-da, u o'zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. U haqiqiy xalq bayrami bo'lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan. Binobarin, qadimdan xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Islomgacha bo'lgan Navro'zda oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda), bir-biriga suv sepish (bu yil suv ko'p bo'lsin, hosil yaxshi bo'lsin degan ma'noda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. [3,75]

Qoraqalpoqlar orasida esa yerga urug' qadashdan oldin dala boshida jonliq (odatda xo'roz) so'yiladi. Yil barakali, unumli kelsin degan niyatda bu ishni bo'ydoq o'spiringa bajartirganlar. Eng keksa usta dehqon fotiha berganidan so'nggina xudodan mo'l-ko'l hosil so'rab, yaxshi niyatlar qilishib ishga kirishilgan. Qurbonlik hayvon go'shtidan palov yoki sho'rva kabi taomlardan biri tayyorlangan.[4]

Yuqorida keltirilgan Navro'z bilan bog'liq barcha odatlar zahirida xalqning yagona ezgu niyati-yangi yil hosildorlik, mo'l-ko'lchilik yili bo'lsin, degan umid-istagi yotadi. Qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasining yorqin na'munasi bo'lgan Navro'z tabiat va hayotning qayta tug'ilishi bilan birga, poklik va shodlik, ma'naviyat va



birdamlik, milliy iftixor, o'zlikni anglash va hamjihatlik ramzi hisoblanib, bahoriy marosimlarni boshlab beradi va butun bir faslning o'z ichiga qamrab oladi. Hosilni yig'ishtirib olish bilan bog'liq marosimlar turli tuman bo'lib, ulardan biri - "qovun sayli"dir. Qovun sayli o'rta asrlarda katta tantanalar bilan o'tkazilgan. Poliz mahsulotlari pisha boshlagan vaqtda dehqonlar qishloq oqsoqollari, qo'ni-qo'shni va yoru birodarlarini bir kun oldin: "Ertaga falon vaqtga paykalga qovun sayliga boringlar", - deb taklif qilgan. Bunga oldindan tayyorgarlik ko'rilgan. Saharda kun isib ketmasidan oldin dehqonlar eng sara qovunlardan uzib salqin joylarga olib qo'yilgan. Shuningdek, kelgan mehmonlar uchun biror mazali taom ham pishirilgan. Sayilga oqsoqollar, bolalar, barcha taklif etilgan. Sayilda erkaklar askiya aytishib, suhbatlashib o'tirganlar. Taomdan so'ng oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig'imiga ruxsat beradilar. Sayil ishtirokchilari eng shirin qovunlar bilan mehmon qilingan. [5] Bog'dorchilikka ixtisoslashgan hududlarda "olma sayli", "uzum sayli", "anor sayli", "anjir sayli" kabi bayram sayillari o'tkaziladi. Bu kabi sayillarning qadimgi xorazm va so'g'dliklarda ham o'tkazilganligi Beruniy ma'lumotlarida qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra qadimda "qovoq bayrami" va uzum bilan bog'liq bayramlar nishonlangan. Xalqimizda har bir meva yoki sabzavotga bag'ishlangan alohida sayillar bilan bir qatorda, ularning barchasiga bag'ishlab bir yo'la o'tkaziladigan bayram ham bo'lgan. U "Hosil bayrami", "Hosil to'yi" yoki "Xirmon to'yi" deb atalgan. Bu bayramlar mehnat mavsumlari yakunlanib, dehqonlarning bo'sh vaqtlarida uyushtirilgan. "Hosil bayrami" tomosha - o'yinlarga juda boy bo'lganidan, katta sayilga aylanib ketgan. Hozirgi davrda bunday bayramlar tuman markazlarida o'tkazilib, ularda karnay-surnaychilar, polvonlar, dorbozlar, turli ansambllar ishtirok etadilar. Shuningdek, bu kabi bayramlarda o'zbek xalqi an'anaviy o'yinlaridan bo'lgan uloq - ko'pkarining o'tkazilishi odamlarga o'ziga xos xursandchilik baxsh etadi. Hozirgi davrda oldiga qo'ygan rejalarini amalda bajara olgan tumanlarda har yili mehnat mavsumi yakunlanganidan so'ng navbati bilan "Hosil bayram"lari o'tkazilib kelinmoqda. Hosil yig'imi oldidan o'tkazilib kelinadigan marosimlar zamirida shukronalikka xos ko'rinishlar mavjud bo'lishi bilan birga hosilni magik himoyalash kabi g'oyalar ham yetakchilik qiladi. [5]

Xulosa sifatida aytishimiz mumkin bo'ladiki marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o'z hayotlari davomida ko'plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar. Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu dehqonchilik va chorvachilikda ob-havo bilan bog'liq bo'lgan marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos marosim mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma'naviy marosimda namoyon bo'ladi.

References:

1. Adhamjon Ashirov Etnologiya o'quv qo'llanma ikkinchi nashr Toshkent «yanginashr» 2014.yil 182-188-betlar.
2. Sarimsoqov B. Marosim folklori // O'zbek folklori, ocherklar T., 1988. - B. 152.



3. Xalmotova.Z. Navo'z bayramining kelib chiqish tarixi. Yangi O'zbekiston talabalari //jurnal, T.,2023.-B.75.
4. Dala yazuvlari. №1,2023. Informator; Seytimbetov.Z, Chimboy tumani, Mayjap APJ, 80-yoshli, ruvi- Qoldawli.
5. Dala yazuvlari. №2,2023. Informator; Nawrizbaev Qudaybergen, Nukus shahri, 70-yshli, ruvi- Bessari.